




## Tashqi savdo

(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-iyun

Farg'ona viloyatida tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-iyun oylarida 714,3 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 280,6 mln. AQSh dollarini va import 433,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosini minus 153,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

### Eksport tarkibi, foizda




Viloyatda eksport tarkibida energiya manbalari va neft mahsulotlari eksporti 1,6 martaga, hamda oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmi 1,6 martaga ko'paygan.

## Tashqi savdo

Import tarkibida asosiy ulush energiya manbalari va neft mahsulotlari (umumiy import hajmida 42,7 %), mashina va asbob–uskunalar (22,7 %) hisobiga tog'ri kelmoqda.

### Import tarkibi, foizda




2018 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosi - 153,1 mln. AQSh dollari tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan -104,1 mln. AQSh dollari va boshqa davlatlar bilan - 49,0 mln. AQSh dollari tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:

	mIn. AQSh dollari	o`tgan yilga nisbatan foizda	umumiy hajmga nisbatan, foizda
<b>Eksport</b>	<b>280,6</b>	<b>108,5</b>	<b>100</b>
paxta tolasi	1,0	8,3	0,3
oziq-ovqat mahsulotlari	107,9	1,6 m	38,5
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	1,9	6,1	0,7
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	11,0	1,6 m	3,9
qora va rangli metallar	0,02	38,3	0,01
mashina va asbob-uskunalar	0,5	1,6 m	0,2
xizmatlar	3,0	96,0	1,1
boshqalar	155,3	111,1	55,3
<b>Import</b>	<b>433,7</b>	<b>2,3 m</b>	<b>100</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	19,2	114,3	4,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	31,7	112,8	7,3
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	185,0	4,0 m	42,7
qora va rangli metallar	40,8	3,6 m	9,4
mashina va asbob-uskunalar	98,3	2,0 m	22,7
xizmatlar	3,0	1,2 m	0,7
boshqalar	55,7	1,6 m	12,8

## 2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda





MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning viloyat jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 58,2 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Bangladesh, Hindiston, Germaniya va Latviya mamlakatlari hisoblanadi va ularning ulushi 35,5 foizni tashkil qildi.

# Tashqi savdo

Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar,

Eksport

Import



# Tashqi savdo

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport xajmi 106,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 65,2 foizga oshdi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida 85,9 foizni meva va rezavorlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga ko'paygan), 12,6 foizni sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,1 foizga kamaygan), 0,8 foizni uzum (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 69,5 foizga kamaygan) tashkil qiladi.



Tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkor davlatlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 54,3 foiz), Qirg'iziston (25,4 foiz), Rossiya (15,0 foiz), Afg'oniston (2,4 foiz), Ukraina (0,7 foiz), hisoblanadi.

# Tashqi savdo

## Meva - sabzavot mahsulotlari eksporti

Meva - sabzavot mahsulotlari eksportining fizik hajmi 70,1 ming tonnani tashkil qildi, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,8 %ga oshdi. Jami meva - sabzavot mahsulotlari eksportining fizik hajmida 38,6 ming tonnani meva va rezavorlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,9 % ga o'sdi), 29,5 ming tonnani sabzavotlar (3,4 % ga o'sdi), 0,9 ming tonnani uzum (77,2 %ga kamaydi), 1,0 ming tonnani yer yong'oq (2,0 martaga), 0,2 ming tonnani yangi uzilgan qovun va tarvuz (20,0 %ga kamaydi) tashkil qildi.



2018 yil yanvar - iyun oylari yakuni bo'yicha meva - sabzavot mahsulotlari eksporti xajmi umumiy eksport xajmida 5,9 %ni tashkil qiladi.



**Farg'ona viloyati statistika  
boshqarmasi**

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va  
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi  
bo'limi

**Nashr uchun mas'ul: J.Artikov**  
*(0371) 230-87-35*